

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

11-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI*Rahmankulova Adolat Xushbakovna*

ПРОБЛЕМЫ РЕАБИЛИТАЦИИ НАСИЛЬСТВЕННО ПЕРЕСЕЛЕННЫХ НАРОДОВ

В УЗБЕКИСТАН В 1930 – 1940-е ГОДЫ..... 11-19

Назирхожаев Мухаммадалихожа Касимхожаевич

ФОРМИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ ЛАГЕРЕЙ ДЛЯ СОДЕРЖАНИЯ ЯПОНСКИХ

ВОЕННОПЛЕННЫХ В СОВЕТСКОМ СОЮЗЕ..... 20-29

Kaypova Malika Dautbay qizi

MUSTAQILLIQ YILLARIDA TURIZM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR..... 30-33

Sobirova Dilfuza, Mirzaaxmedov Xabibullo, Odiljonov Xayitali

QO'QON XONLIGINING DIPLOMATIK ALOQALARI 34-39

Raupova Mushtariybegim Ilxomjon qizi

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING MA'MURIY-HUDUDIIY BOSHQARUVI

TARIXSHUNOSLIGI 40-47

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

ДИПЛОМАТИЯ И ТОРГОВЛЯ НА ПЕРИФЕРИИ ИМПЕРИЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ

ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ

МУХАММАД РАХИМХАНА I (1806–1825) 48-54

Рузибоев Самандарбек, Ахмадбекова Ўғилой

НАУЧНО-ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБУ РАЙХОНА БЕРУНИ

«АЛ-АСАР АЛЬ-БАКИЯ»: МЕТОДОЛОГИЯ, ИСТОЧНИКИ И КУЛЬТУРНО-

ХРОНОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ 55-64

Tilovov Mirqosim Amanturdiyevich

OLTINSOY TUMANI ARXEOLOGIK XARITASI 65-70

Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li

O'ZBEKISTONDA NEFT VA GAZ SANOATI TARIXI (1900-1950 YILLAR) 71-76

Abdurasulov Akmaljon

TURKISTONDA MATBAACHILIKNING VUJUDGA KELISHIDAGI HAMKORLIK

ALOQALARI TARIXI..... 77-86

Abatov Aydos

QORAQALPOG'ISTONDA SANOATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH

BOSQICHLARI (XX ASR II YARMI) 87-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI*Pirmatova Farangiz Ma'rufjonovna*

THE EFFECTS OF GREEN ECONOMY IMPLEMENTATION ON ECONOMIC GROWTH

IN DEVELOPING COUNTRIES..... 91-99

Jumabayev Adilbek Bazarbayevich

WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF REGIONAL ECONOMIC POTENTIAL 100-107

<i>Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o'g'li</i> BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	108-114
<i>Fayzieva Dilyora Shamsitdin kizi,</i> INSTITUTIONAL PRISM OF DIGITAL DIVIDENDS: THE IMPACT OF HUMAN CAPITAL AND "ANALOG COMPLEMENTS" ON THE DYNAMICS OF SOCIO-ECONOMIC INEQUALITY.....	115-123
<i>Турдыев Гайрат Ялгашевич</i> РАЗВИТИЕ АВТОКОЛОНИ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В УСЛОВИЯХ ТРАНСПОРТНЫХ РЕФОРМ: ИСТОРИЧЕСКИЙ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАПЫ.....	124-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich</i> SHAHAR AHOLISINING IJTIMOIIY MUAMMOLARINING IJTIMOIIY FALSAFIY TAHLILI ..	130-134
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i> INSONIYAT TARIXI VA DINIY BAG'RIKENGLIK	135-139
<i>Karimov Raxmat Raxmanovich</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖЦИВИЛИЗАЦИОННОЙ ФИЛОСОФИИ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	140-146
<i>Ergashev Urolbek Berkinovich</i> NAZARIY FALSAFANI TASNIFLASHDA AHMAD TOSHKO'PRIZODA YONDASHUVI.....	147-151
<i>Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi</i> IBN RUSHDNING TAFAKKUR ERKINLIGI HAQIDAGI QARASHLARI.....	152-155
<i>Abdunazarov Lutfillo Mamanovich</i> YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI	156-160
<i>Tangirov Nizom Abduraxmonovich</i> NOOSFERA VA BARQAROR RIVOJLANISH PARADIGMASINING FALSAFIY-METODOLOGIK ASOSLARI	161-166
<i>Yusupova Nargiza Ro'stamovna</i> O'ZBEK ETNOMUSIQASIGA OID TARIXIY MANBA VA MUTAFAKKIRLAR ETNOMUSIQA BORASIDAGI QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI.....	167-172
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich</i> MA'NAVIY BARKAMOL YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA G'OYAVIY TARBIYANING O'RNI	173-177
<i>Xamdamov Behzod</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DUNYOQARASHIDA VATANPARVARLIK G'OYALARINING FALSAFIY-TARIXIY ASOSLARI	178-185
<i>Bekchanov Sanjar Ibragimovich</i> "MODERNIZATSIYA" TUSHUNCHASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY MOHIYATI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA MILLIY KONSEPSIYALAR.....	186-190
<i>Adizov Azim Tolibovich</i> IJTIMOIIY KONFRONTATSIYANING TUZILISHI VA DINAMIKASI.....	191-196

<i>Eshmurodov Nabillo</i> GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXS MA'NAVİYATINING TRANSFORMATSIYASI VA BEGONALASHUV MUAMMOSI	197-201
<i>Yokubov Suxrob Firdavsovi</i> TASAVVUF TA'LIMOTINING G'OYAVIY MANBALARI	202-206
<i>Najimidinova Dilnoza Gulomjonovna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK MILLIY OILASINING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI	207-210
<i>Otokulov Abror Sobirkulovich</i> JAMIYATDA MA'NAVIY-AXLOQIYLIKNI YUKSALTIRISHDA SHAXS MAS'ULIYATINI OSHIRISH OMILI	211-217

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Maxamadaliyeva Zuxra Baxrom qizi, Adilova Nasiba Raximboy qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MADANIY METAFORALARNING MOHIYATI	218-222
<i>Xusainova Zilola Yuldashevna, Yangibayeva Surayyo Gulumboyevna</i> DIAXRON KORPUS ALGORITMLARI	223-228
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> POLITICAL EXILE AND PERSONAL IDENTITY IN LORD BYRON'S LIFE AND WORK	229-233
<i>Karimova Ozodaxon Avazxon qizi</i> A LINGUO-PRAGMATIC STUDY OF INFORMAL SPEECH IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES: COMPARATIVE ANALYSIS OF COMMUNICATIVE STRATEGIES, SOCIOCULTURAL CONTEXTS, AND PRAGMATIC FUNCTIONS	234-240
<i>Айтмуратова Турсынай Маратовна</i> КОНЦЕПТ «ТРУД» В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ	241-244
<i>Fayzullayeva Zebuniso Abdukarimovna</i> KONYUNKTIVNING SEMANTIK-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI	245-248
<i>Sodikova Vasilakhon, Gavharoy Isroiljon qizi</i> THE ISSUES OF INFORMATION SECURITY AND RELIABILITY IN MODERN JOURNALISM	249-258
<i>Холикова Замира</i> СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КОМПОНЕНТОМ-ЗООНИМОМ «СОБАКА» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	259-272

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Турсунова Маликахон Улугбековна</i> СООТНОШЕНИЕ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ РАНГОВ С КВАЛИФИКАЦИОННЫМИ КЛАССАМИ ДОЛЖНОСТЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЗНАЧЕНИЯ КЛАССОВ И РАНГОВ В ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	273-286
<i>Karaketova Dilnoza Yuldashevna</i> JINOYAT SUBYEKTINI TAVSIFLOVCHI BELGI SIFATIDA RETSIDIV	287-294
<i>Мируктамова Феруза Лутфуллаевна</i> ПРАКТИКА ЗАРУБЕЖНЫХ ГОСУДАРСТВ ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ И БЕЗОПАСНОСТИ ДЕТЕЙ ОТ ИНФОРМАЦИОННЫХ УГРОЗ	295-300

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i> MULK HUQUQIDAN VOZ KECHISHNING AYRIM MASALALARI.....	301-309
<i>Akayeva Marapat Abduxalikovna</i> FUQAROLIK HUQUQIDA ASSOSSIZ BOYLIK ORTTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA ...	310-317
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ENERGETIKA SEKTORIDA ATROF-MUHITGA TA'SIRNI BAHOLASH TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY SHART-SHAROITLARI.....	318-326
<i>Jiyenbayev Baxadir Ospanovich</i> EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHGA DOIR HUQUQIY NORMALARNING ILMIY VA NAZARIY MOHIYATI	327-332
<i>Шомуратова Пальмира Комил қизи</i> РЕАЛИЗАЦИЯ ПРИНЦИПА СОСТЯЗАТЕЛЬНОСТИ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ: ПРЕДЕЛЫ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСИЛЕНИЯ	333-339
<i>Калдарбеков Асылжан Оспанович</i> РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ И ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗЕМЕЛЬ ЛЕСНОГО ФОНДА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ОПЫТ КАЗАХСТАНА И УЗБЕКИСТАНА	340-351
<i>Istamova-Fayzullaeva Dilafruz Oybek qizi</i> SOMATIK HUQUQLARNING NAZARIY TALQINI: GERMANIYA VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY HUQUQIY TAHLIL	352-359
<i>Urakov Djaxongir Rajabovich</i> PROKURATURA ORGANLARINING YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINI AMALGA OSHIRISH BORASIDA HAMKORLIK FAOLIYATI	360-365
<i>Байтурова Ауда Набиевна</i> СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКОТУРИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	366-373
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGI TUSHUNCHASI NAZARIY VA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI	374-382
<i>Mustafaqulov Dilshod Salomovich</i> NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA QONUNIYLIK PRINSIPI	383-389
<i>Nomazov Ixtiyor Ismailovich</i> ISBOT QILISH ELEMENTI SIFATIDA KO'RSATUVLARNI OLDINDAN MUSTAHKAMLAB QO'YISH	390-394
<i>Xoliqnazarov Farhod Bozor o'g'li</i> INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI JINOIY-HUQUQIY HIMOYA QILISH MASALALARI ...	395-399
<i>Normuratov Aktam Tulaboy o'g'li</i> OLIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	400-403
<i>Шомахсудов Шоакрам Шомуратович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ КОМПЬЮТЕРНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ	404-411
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i> O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK NAZORATNI KUCHALTIRISH MASALALARI.....	412-418

<i>Javliyeva Gullola Abdurahim qizi</i> IJARA MEHNATI — NOTIPIK MEHNAT MUNOSABATLARINING SHAKLI SIFATIDA.....	419-425
<i>Babaeva Irodakhon Erkinjon qizi</i> ISSUES OF IMPLEMENTING INTERNATIONAL LEGAL NORMS IN THE FIELD OF CLIMATE CHANGE INTO THE NATIONAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	426-434
<i>Ядгаров Шахрух</i> ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК СУБЪЕКТА МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА.....	435-439
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING FIZIKA FANIDAN NOSTANDART TOPSHIRIQLARNI BAJARISH ORQALI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	440-446
<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i> SUN'IY INTELLEKTNING TA'LIMDAGI O'RNI.....	447-451
<i>Xolmirzayeva Gulbahor Baxodirovna</i> MAKTABGACHA TA'LIMDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNI MILLIY MODEL BILAN UYG'UNLASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	452-457
<i>Raximova Lolaxon Abduraximovna</i> TALABALARNING KLINIK QAROR QABUL QILISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA BIOFIZIK DIAGNOSTIKA TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATIV O'QITISH METODIKASI.....	458-462
<i>Toshmamatova Munisa Toshmamatovna</i> UMUMTA'LIM FANLARIDAN DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAVJUD HOLATI TAHLILI.....	463-466
<i>Raximdjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna</i> INTERCULTURAL COMPETENCE AND REFLECTIVE LEARNING IN GLOBALIZED HIGHER EDUCATION: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS.....	467-473

Received: 1 December 2025
Accepted: 15 December 2025
Published: 30 December 2025

Article / Original Paper

DIPLOMATIC RELATIONS OF THE KHOKAND KHANATE

Sobirova Dilduza Tukhtasinovna

Andijan State University
Faculty of History and Social Sciences
Professor, Department of the History of Uzbekistan

Mirzaakhmedov Khabibullo Abduqakhkhor o'gli

Andijan State University
Faculty of History and Social Sciences
Lecturer, Department of the History of Uzbekistan

Odiljonov Khayitali Shavkatjon o'gli

Andijan State University
Faculty of History and Social Sciences
Student

Abstract. This study is devoted to exploring the ancient statehood traditions on the territory of Uzbekistan, as well as the formation, development, and historical significance of the Kokand Khanate. The research highlights the roots of national statehood through the examples of ancient states such as Bactria, Sogdiana, and Khorezm, and examines the influence of Soviet-era historical interpretations on the understanding of national history.

Keywords: Kokand Khanate; Fergana Valley; Ming dynasty; foreign trade; Eastern Turkestan.

QO'QON XONLIGINING DIPLOMATIK ALOQALARI

Sobirova Dilduza To'xtasinovna

Andijon davlat universiteti
Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti
O'zbekiston tarixi kafedrası professori

Mirzaaxmedov Xabibullo Abduqaxxor o'g'li

Andijon davlat universiteti
Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti
O'zbekiston tarixi kafedrası o'qituvchisi

Odiljonov Xayitali Shavkatjon O'g'li

Andijon davlat universiteti
Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu ish O'zbekiston hududidagi qadimiy davlatchilik an'analari hamda Qo'qon xonligining shakllanishi, rivojlanishi va tarixiy o'rnini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda Baqtriya, Sug'd va Xorazm kabi qadimiy davlatlar misolida milliy davlatchilikning ildizlari yoritiladi, sovet davridagi tarixiy talqinlarning milliy tarixga ta'siri ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Qo'qon xonligi; Farg'ona vodiysi; Ming sulolasi; tashqi savdo; Sharqiy Turkiston.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI11Y2025N04>

Kirish. Vatanimiz davlatchilik tarixi juda qadimiy bo'lib, ilmiy manbalarga ko'ra 3000 yildan ortiq davlatchilik an'analariga ega. Bunga misol qilib vatanimiz hududida shakllangan Qadimgi Baqriya, So'g'd, Xorazm kabi davlatlarning shakllanishi miloddan avvalgi IX-VIII asrlarga oid ekanligini aytishimiz mumkin. O'z o'rnida har bir yurtning davlatchilik tarixini xaqqoniy va shaffof yoritishda, uni kelajak avlodlarga yetkazishda ilmiy dalillarga asoslangan arxeologik va yozma manbalar mashxur tarixchilarning ustaliklari muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Vatanimizning "Qadimgi Tarixini o'rganishda "Avesto" kabi mahalliy yozma manba, qolaversa, Yunon, Rim, Xitoy tarixchilarining qadimiy asarlarida davlatchiligimiz tarixiga oid ma'lumotlar yetarli. Ammo, Rossiya imperiyasi Sobiq SSR davrida bir necha ming yillik davlatchiligimiz tarixi to'laqonli o'rganilganligi bo'yicha qator cheklovlar mavjud edi. Garchi bu tuzumlarda "tenglik" g'oyalarini ilgari surgan bo'lsada milliy davlatchilik g'oyalarigina emas, hatto davlatchilik tarixini o'rganishga ham to'sqinlik qilindi. Natijada tarix o'qitishning ilmiylik, ilmiy xolislik, inson omili kabi eng asosiy tamoyillari buzildi. Amir Temur, Shayboniyxon kabi buyuk imperiya qurgan bobolarimiz esa "bosqinchi" sifatida talqin etildi. Shu jumladan Xonliklar davri tarixi o'zbek davlatchiligi tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan davrlardan biri hisoblansa-da, Xiva, Buxoro va Qo'qon xonliklari tarixini o'rganish va o'qitishga yetarli darajada e'tibor berilmagan. Aksincha, xonlarning "qonxo'rligi", "axmoqligi", mingboshi, qozilarning "axloqsizligi" haqida ertaklar to'qilgan ediki, xalqning tasavvurida ularga nisbatan nafrat hissi tarbiyalandi [1, p. 57].

Qo'qon xonligining tashqi siyosati va diplomatik aloqalari masalasi tarixshunoslikda turlicha yondashuvlarga sabab bo'lgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya Mavzu bo'yicha quyidagicha olimlar tatqiqot olib borganlar B. A. Ahmedov o'z tadqiqotlarida Qo'qon xonligini "siyosiy jihatdan mustaqil, lekin qo'shni kuchlar ta'sirini sezgan davlat" sifatida baholaydi [2, pp. 58-65] (Ахмедов, Б. (1996). Ўрта асрлардаги Ўзбекистон тарихидан. Тошкент: Ўқитувчи). Shu bilan birga, V. V. Bartold va S. G. Agajanov kabi rus sharqshunoslari Qo'qon xonligi diplomatik faoliyatini asosan "Rossiya janubiy chegaralari xavfsizligi nuqtayi nazaridan" tahlil qilgan (Бартольд, В. В. (1963). Сочинения. Т. II, ч. 1: Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Москва: Издательство восточной литературы).

Boshqa tomondan, R. Boboxonov Qo'qon xonligining tashqi siyosatini Buxoro va Xiva bilan bo'lgan o'zaro raqobat, savdo yo'llari va elchilik missiyalari asosida yoritadi (Бобохонов, Р. (2007). Қўқон хонлиги ва унинг ташқи сиёсати. Тошкент: Фан). Uning fikricha, Qo'qon xonligi Rossiya va Xitoy (Sin imperiyasi) o'rtasida muvozanatli siyosat yuritgan, bu esa mintaqa tinchligini saqlashda muhim omil bo'lgan⁵ (Ellis, R. (2008). История Центральной Азии. Санкт-Петербург: Евразия).

Buxoro va Xiva xonliklaridan "Yosh" bo'lishiga qaramay, Qo'qon xonligi o'z davrining iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va harbiy sohalarda qator yutuqlarga erishdi. Masalan, o'z sarhadlarini qisqa muddat ichida g'arbda O'ratepa, Jizzaxgacha, sharqda esa Issiqko'l hududlarigacha kengaytira olgan, Xitoy imperiyasi bilan Sharqiy Turkistonda urush olib borib, o'zi uchun foydali shartnoma tuzishga majbur qilgan.

XV asrda yevropaliklarning Sharqqa olib boruvchi dengiz yo'lini kashf etishlari bilan Buyuk Ipak yo'li inqirozga yuz tutdi. Natijada Buyuk Ipak yo'lida joylashgan O'rta Osiyo jahon sivilizatsiyasidan chetda qolib ketdi. Xalqaro aloqalarning susayishi iqtisodiyotga ham salbiy ta'sir ko'rsatib, O'rta Osiyo iqtisodiy va madaniy jihatdan tushkunlikka yuz tuta boshladi.

XVI asr boshlarida hokimiyatning shayboniylar tomonidan egallanishi ham, ashtarxoniylarning hukmronligi ham Movarounnahming ilgarigi mavqeini tiklay olmadi [2, p. 13].

Muhokama. XVIII asr boshlarida Buxoro xonligida markaziy hokimiyat ichki kurashlar oqibatida zaiflashdi. Bunday vaziyatdan foydalangan jung'orlar Farg'ona vodiysiga tez-tez bostirib kirib, talon-taroj qila boshladilar. Boshqa tomondan esa Sin imperiyasi ham xavf solmoqda edi. Vaziyat vodiydagi o'zbeklarning ming urug'i oqsoqollarini Buxoro xonligidan alohida mustaqil davlat tuzishga undadi.

1709-yilda Ming urug'i vakillari Farg'ona vodiysida hokimiyatni o'z qo'llariga oldilar. Targ'ova, Pillaxon, To'qaytepa, Parnok, Tepaqo'rg'on va Qaynar mavzelari yangi mustaqil davlatning dastlabki hududlari hisoblangan. Minglar sulolasi Farg'onada mustaqil davlatga asos solar ekan, qabila oqsoqollaridan biri Shohruhbiyni xon deb e'lon qildilar. Shu tariqa vodiya 1876- yilgacha hukmronlik qilgan yangi o'zbek davlati vujudga keldi [3, p. 15]. Shu tariqa Qo'qon xonligi deb atalgan yangi o'zbek davlati vujudga keldi. Xonlikning birinchi hukmdori Shohruxbiy, Tepaqo'rg'on esa uning qarorgohi deb belgilandi.

Qo'qon xonligining hududi sharqda Sharqiy Turkiston, g'arbda Buxoro amirligi va Xiva xonligi, shimolda Qozoq juzlari yerlari bilan chegaradosh bo'lgan. Xonlikning janubiy chegaralari Qorategin, Ko'lob, Darvoz Shog'non singari tog'li o'lkalarni o'z ichiga olib bu hududlar uchun Buxoro amirligi bilan tez-tez to'qnashuvlar bo'lib turgan. Qo'qon xonligi ham boshqa xonliklar singari ma'muriy-hududiy jihatdan bo'lib boshqarilgan. Xonlikning hududi mayda viloyatlarga bo'lib idora qilingan. Viloyatlarning boshqaruvi hokim yoki beklar tomonidan amalga oshirilgan. Xonning o'g'illari yoki qarindoshlari va nufuzli mahalliy amaldorlar hokim etib tayinlangan. Hokimlar viloyatdagi harbiy kuchlar, mirshablar va fuqaro boshqaruvining boshlig'i hisoblangan.

Qo'qon xonligi hududiy jihatdan quyidagi 17 ta viloyatga bo'lib idora qilingan:

Marg'ilon, O'sh, Andijon, Namangan, Shahrixon, Baliqchi, Navqot, Chust, Buloqboshi, Aravon, Koson, Mahram, So'x, Xo'jand, Toshkent, Turkiston hamda O'ratepa shaharlari hududida [4, p. 18].

Dastlabki manbalarda xonlik poytaxti bo'lgan Qo'qon shahri Havokand, Xuvakan, Xuvakent, Xo'qand kabi nomlar bilan uch- raydi. Qo'qon atamasining ma'nosi haqida esa ko'plab farazlar mavjud. Shulardan 3 tasini asosiy, deb hisoblash mumkin:

"Xuk kand" tojikcha "to'ng'iz kavlagan" ma'nosini ang- latadi. Bunday qarashning paydo bo'lishiga sabab, manbalarda ko'rsatilishicha, shahar o'rni qamishzor bo'lib, bu yerda yovvoyi cho'chqa (to'ng'iz)lar ko'p bo'lgan.

"Yaxshi", "latif" ma'nosini anglatib, shahar bahavo, chiroyli joyda joylashganligi uchun shunday nom olgan (Ho'qandi latif).

"Yaxshi", "latif" atamasi shahar aholisiga nisbatan ishlatilgan bo'lib, qo'qonliklarning fe'l-atvori yaxshi bo'lganligidan dalolat beradi [1, p. 15].

Qo'qon xonligi ko'p millatli davlat hisoblanib, ma'lumotlarga ko'ra, XIX asr 70-yillarida xonlik aholisining umumiy soni 3 milliondan ortiq bo'lgan. Xonlik hududida o'zbeklar, tojiklar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar, uyg'urlar, yahudiylar, arablar, eronliklar, ruslar, tatarlar, dunganlar va boshqa xalqlar yashagan. Son jihatdan aholining ko'pchiligini o'zbeklar tashkil etgan. Undan keyingi o'rinda tojiklar turgan. Ular, asosan, O'ratepa, Xo'jand, Konibodom, Isfara, Qorategin,

So'x, Rishton, Chust, Kosonsoy hududlarida yashaganlar. Ularning asosiy xo'jaligi dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo va qisman, chorvachilikdan iborat bo'lgan [1, p. 24].

Qoqon xonligini aholisining asosiy mashg'uloti dehqonchilik va chorvachilik bo'lsada xonlik hududida hunarmandchilik, savdo-sotiq kabi sohalar ham ancha rivojlangan edi. Bu esa o'z navbatida xonlikni faol tashqi siyosat yuritishga undar edi.

Qo'qon xonligi tashqi savdo aloqalarida Buxoro va Xiva xonliklari alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Bu xonliklar o'zaro chegaradosh bo'lishi bilan birga, ularda yashayotgan xalqlar tili, dini, madaniyati va tarixining mushtarakligi o'zaro munosabatlarning muhim omili bo'lib xizmat qilgan. Buxoro va Xivadan tashqari, Qo'qon xonligi Rossiya, qozoq dashtlari, Qoshg'ar, Xitoy, Afg'oniston, Eron, Hindiston, arab mamlakatlari, Turkiya va boshqa davlatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirgan [1, p. 37].

Qo'qon xonligi bilan tashqi savdo aloqalariga ega mamlakatlardan biri Hindiston edi. Ikki davlat hududi bir biridan uzoqligiga qaramay, savdo aloqalar o'sib borgan. Qo'qon xonligidan Hindistonga, asosan, xom ipak, ipak va yarim ipak matolar, quritilgan mevalar, ro'yan¹, echki momig'i jo'natilgan. Shuningdek, qo'qonlik savdogarlar tomonidan Hindistonga mahalliy hunarmandchilik mahsulotlaridan tashqari, O'rta Osiyoning boshqa hududlarida tayyorlangan va Rossiya mollari ham olib borilgan [1, p. 37].

Qo'qon xonligi Afg'oniston bilan ham faol savdo aloqalarini o'ratgan. Afg'oniston shaharlari bilan Qo'qon xonligini bog'lovchi karvon yo'llari, asosan, Buxoro amirligi hududidan o'tgan va amirlik bozorlari orqali ham Afg'oniston-Qo'qon xonligi savdo aloqalari amalga oshirilgan. Afg'onistondan Qo'qon xonligiga Buxoro orqali afg'on qilichi, xanjari, to'n va sallalari, gilamlar, dorivor giyohlar, qo'y, tulki mo'ynalari, jun gazlama, buzgundj bo'yog'i, Buxoro qorako'lidan farq qiluvchi qorako'l terisi va hind, ingliz, fors mollari keltirilgan. Xonlikning Afg'onistonga eksport qiluvchi asosiy mahsuloti ipak hisoblangan. Afg'oniston bozorlariga Xitoyda ishlab chiqarilgan chinni idishlarni sotishda Qo'qon savdogarlari ham faol ishtirok etganlar.

Qo'qon xonligidan Eronga, asosan, xom ipak, ipak gazlama va yarim ipak gazlamalar va xonlik hududi orqali hamda savdogarlari tomonidan Qoshg'ar ipagi va ipak matolari, Xitoy chinni idishlari, attorlik mollari, choy va boshqa mahsulotlar olib borilgan [1, p. 37].

Qo'qon xonligidan arab mamlakatlari va Usmoniylar davlati shaharlariga ipak va yarim ipak matolar, mahalliy hunarmandlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar va Xitoy mollari olib borilgan. Bu mamlakatlarga xonlik savdogarlarining har bir safari bir necha oylab, yillab davom etgan. Har yili haj mavsumida Makka va Madina ziyoratiga otlangan hojilar ham ikki hudud o'rtasidagi savdo aloqalarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etganlar [5, p. 38].

Biroq, bu davrda Qo'qon xonligi o'z qo'shnilari, jumladan Sin imperiyasi² va Buxoro amirligi bilan munosabatlari juda og'ir kechdi. Bunga, bir tomondan, Xitoyning 1755-1759-yillar mobaynida Sharqiy Turkistonni Bo'ysindirishi ikkinchidan, Qo'qon xonligini kuchsizlantirishga urinishi sabab bo'ldi. Bunday og'ir siyosiy ahvol o'z navbatida xonlik hukmdorlarini ularga qarshi harbiy harakatlar olib borishga majbur qildi.

Qo'qon xonligining Xitoy bilan munosabati to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar Erdona (1753-1763-y.y.) davri bilan bog'liq [6, p. 55]. Masalan, Erdonabiy hukmronligi davrida Xitoy

¹ "Ro'yan" — bu tarixiy-savdo atamasi bo'lib, qizil rang beruvchi o'simlik bo'lgan *ruyan* (rubiya tinctorum — *madder*) ildizidan olingan bo'yoqni anglatadi.

² Sin imperiyasi –Xitoy hududiga to'g'ri keladi.

jung'orlarni tor-mor etib, Qozoq juzlari yeriga hujum boshladi va Toshkent chegaralariga yaqinlashib keldi. Sharqda esa O'sh viloyatini (hozirgi Qirg'iziston Respublikasi hududida) bosib oldi.

Andijon, Marg'ilon va Namangan bekliklari Xitoyga vassalligini tan oldi. Shunday sharoitda Erdonabiy Xitoy bilan Qo'qon xonligi uchun tahqirli shartnoma tuzishga majbur bo'ld. Shartnomaga binoan, Qo'qon xonligi o'zining Xitoyga qaram ekanligini tan oldi. Qo'qonning yana bir xoni Umarxon davrida ham Qo'qon-Xitoy munosabatlari keskin davom etdi. Bunga Sharqiy Turkiston (Qashg'ar) – uyg'ur xalqining vatani. Uni Xitoy bosib olgach Qashg'ar hukmdorlari Qo'qondan boshpana topgan edilar. Xitoy hukumati esa Umarxonga ularni o'tkazmaslik shartini qo'yishi sabab bo'ldi. Madalixon davrida esa Qo'qon-Xitoy munosabatlari yanada keskinlashdi. Bunga Madalixonning Xitoyga umuman bo'ysunmaslikka qaror qilganligi hamda davlat chegarasini tobora Sharqiy Turkiston tomon kengaytirib borayotganligi, shuningdek, 1825-yilda Qashqar aholisining Xitoyga qarshi ozodlik kurashini qo'llab-quvvatlaganligi sabab bo'ldi. Xitoy hukumati bunga javoban 1829-yilda Qo'qonning Shaqrqiy Turkistonda yuritadigon savdo ishlarini taqiqladi. Madalixon esa uyg'urlarning Xitoyga qarshi ozodlik harakatini qo'llab-quvvatlashda davom etdi.

U Sharqiy Turkistonliklarning ozodlik kurashi rahbari Jahongirxo'ja va uning ukasi Yusufxo'ja ixtiyoriga yordam uchun qo'shin jo'natdi. Natijada, Yusufxo'ja Qashqarni egalladi va Yorkentni egallash uchun harbiy harakatlarni davom ettirdi. Yusufxo'janing harakatlari Xitoy hukumatini tashvishga solib qo'ydi va Yusufxo'jaga qarshi katta qo'shin jo'tatdi. Qo'zg'olonchilarning orasida birlik yo'qligi hamda Qo'qon-Buxoro munosabatlari keskinlashib Qo'qon xoni Sharqiy Turkistonga jo'tgan qo'shinini chaqirib olishi Yusufxo'janing mag'lubiyatiga sabab bo'ldi. Natijada, Yusufxo'ja Sharqiy Turkistonni tashlab chiqishga majbur bo'ldi. U bilan 70 ming Uyg'ur oilasi Farg'ona vodiysiga ko'chib keldi. Qo'qon xonligi esa o'z chegaralarini Sharqiy Turkiston tomon kengaytirish siyosatini davom ettirdi. Ayni vaqtda Xitoy moliyaviy qiyinchiliklar tufayli Qo'qon xonligiga qarshi harbiy harakatlar olib bora olmadi. Oqibatda, 1832-yili Pekinda Xitoy-Qo'qon o'rtasida shartnoma imzolandi.

Natijalar. Aksariyat sharqshunoslar 1831-yili shartnoma imzolangan sana deb hisoblashadi, ammo Xitoy yozma manbalarida shartnoma imzolangan sana 1832-yil 13-yanvar deb belgilangan [7, pp. 136-137].

1832 yilgi shartnomaga ko'ra ikki tomon ham quyidagi majburiyatlarni olgan:

-Xitoy esa Sharqiy Turkistonda qo'qonlik savdogarlar faoliyatini taqiqlashni bekor qilgan.

-Qo'qon savdogarlariga Sharqiy Turkistonda boj to'lamasdan savdo qilish huquqi berilgan;

- Sharqiy Turkistondan Qo'qon savdogarlari chiqarib yuborilganda ulardan tortib olingan mol-mulklari evaziga Qo'qon xoniga tovon to'langan;

— Sharqiy Turkistonda savdo qiluvchi markaziy osiyolik savdogarlar to'laydigan to'lovlarni yig'ib olish huquqi Qo'qon xonligiga berilgan;

-Qo'qon Jahongir xo'ja avlodlarini Sharqiy Turkistonga o'tkazmaslik majburiyatini olgan; [8, p. 140].

Xulosa. Yuqoridagi tadqiqot natijalari Qo'qon xonligi O'zbekiston davlatchiligi tarixida muhim o'rin tutgan siyosiy tuzilma ekanini ko'rsatadi. XVIII asr boshida Farg'ona vodiysida shakllangan ushbu davlat qisqa vaqt ichida o'z hududini kengaytirib, ma'muriy boshqaruv

tizimini takomillashtirgan, iqtisodiy hayotni rivojlantirgan va faol tashqi siyosat yurita olgan. Xonlikning Hindiston, Afg'oniston, Eron, Rossiya va Sharqiy Turkiston bilan savdo-siyosiy aloqalari mintaqada muhim geoiqtisodiy markaz sifatidagi mavqeini mustahkamlagan. Qo'qon va Xitoy o'rtasidagi munosabatlar, ayniqsa 1832-yilgi shartnoma, xonlikning xalqaro maydondagi rolini yoritishda katta ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, Qo'qon xonligi tarixi milliy davlatchilik an'analari, hududiy birlik, siyosiy mustaqillik va tashqi aloqalar rivojida muhim tajriba bo'lib, uning chuqur o'rganilishi bugungi ilmiy izlanishlar uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. I.Kuzikov, QO'QON XONLIGI TARIXI. Namangan, 2014.
2. I.Kuzikov, QO'QON XONLIGI TARIXI. Namangan, 2014.
3. I.Kuzikov, QO'QON XONLIGI TARIXI. Namangan, 2014.
4. G.Taniyeva, QO'QON XONLIGINING DAVLAT BOSHQARUV TIZIMI. Namangan, 2024.
5. I.Kuzikov, QO'QON XONLIGI TARIXI. Namangan, 2014.
6. I.Kuzikov, QO'QON XONLIGI TARIXI. Namangan, 2014.
7. К. В.С., Экономическая политика циньского правительства в Синьцзяне, Москва: Наука, 1973.
8. U. J. N. N. Q. Usmonov, O'zbekiston tarixi, Toshkent : Nashriyot-matbaa ijodiy, 2014.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).